



**JAMOAT XAVFSIZLIGINI JANGOVOR TA'MINLASH TIZIMIDA
ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VOSITALARIDAN
FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.**

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ БОЕВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.**

**THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE
SYSTEM OF OPERATIONAL SUPPORT FOR PUBLIC SECURITY.**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi mayor **Sobirov**
Sobirjon Sirojiddin o'g'li*

Annotatsiya: Mamlakatimizda bugungi kunga kelib ko'plab ommaviy tadbirlar o'tkaziladigan obyektlar va hududlarda fuqarolarimiz madaniy xordiq olishlari uchun har-xil turdagi tadbirlar tashkillashtirilib, o'tkazilib kelinmoqda. Bu turdagi tadbirlar fuqarolarimnizni dam olishi uchun tashkillashtirilgan vaqtda jamoat tartibini buzish holatlari xam uchrab turibdi. Asosan jamoat tartibini buzish holatlari futbol musobaqalarida ko'plab sodir bo'lmoqda va bular sport jihozlari, transport vositalari, davlat va fuqarolarning moddiy buyumlariga zarar yetkazish bilan tavsiflanadi. Bunday vaziyatlarda jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimida navigatsiya vositalaridan foydalanish eng to'g'ri qaror hisoblanib, u o'zini oqlab kelmoqda .

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, sun'iy yo'ldosh, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlar, harbiy strategiya, harbiy xizmatchi, milliy gvardiya

Аннотация: В нашей стране к настоящему времени на объектах и территориях, где проводятся массовые мероприятия, организуются и



проводятся различные мероприятия для культурного отдыха граждан. При проведении подобных мероприятий иногда возникают случаи нарушения общественного порядка. В основном нарушения общественного порядка часто происходят на футбольных матчах и проявляются в повреждении спортивного инвентаря, транспортных средств, а также материальных ценностей государства и граждан. В таких ситуациях использование навигационных средств в системе боевого обеспечения общественной безопасности считается наилучшим решением и оправдало себя.

Ключевые слова: общественная безопасность, спутник, поддержание общественного порядка, массовые мероприятия, военная стратегия, военнослужащий, национальная гвардия.

Annotation: In our country today, various types of events are regularly organized and held at facilities and areas where mass gatherings take place, allowing citizens to enjoy cultural recreation. However, during such events, cases of public order violations occasionally occur. Most often, these violations happen during football matches and are characterized by damage to sports equipment, vehicles, and the material property of both the state and citizens. In such situations, the use of navigation tools within the system of combat support for public security is considered the most appropriate decision and has proven effective in practice.

Keywords: public security, satellite, maintaining public order, mass events, military strategy, serviceman, national guard.

Bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Texnologik taraqqiyot sharoitida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish xavfsizlik tizimining tezkorligi va aniqligini oshiradi.

Axborot texnologiyalari yordamida jamoat joylarida yuz berayotgan huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatlarni tezda aniqlash va tahlil qilish



imkoniyati yaratiladi. Xususan, videokuzatuv tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi tahliliy dasturlar, ma'lumotlar bazalari integratsiyasi va mobil aloqa vositalari jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, axborot tizimlari orqali favqulodda vaziyatlarda tezkor axborot almashinuvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish va aholiga ogohlantirish signallarini yetkazish imkoniyati kuchayadi. Shu tariqa, zamonaviy axborot texnologiyalari jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimini yanada ishonchli, samarali va zamon talablariga mos qilishda muhim o'rin tutadi.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash davlatning eng muhim ustuvor vazifalaridan biridir. Jinoyatchilikning yangi shakllari, terrorizm, kiberxavfsizlikka tahdidlar, ommaviy tartibsizliklar xavfsizlik tizimiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Aholining tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, ommaviy tadbirlarda tartib va xavfsizlikni saqlash, favqulodda vaziyatlarda tezkor harakat qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan, xususan navigatsiya vositalaridan samarali foydalanish zarurdir.

Navigatsiya vositalari deganda harakatlanayotgan obyektlarning joylashuvini aniqlash, ularning yo'nalishini belgilash va harakatini kuzatish imkonini beruvchi texnik tizimlar tushuniladi va bunga quyidagilar kiradi:

GLONASS — Rossiya tomonidan ishlab chiqilgan navigatsiya tizimi;

Galileo (Yevropa Ittifoqi) va BeiDou (Xitoy) tizimlari;

Geoaxborot tizimlari (GIS) — xaritalash, tahlil va joylashuvni boshqarish uchun.

Bu texnologiyalar yordamida jamoat xavfsizligi kuchlari joylashuvni aniqlaydi, yo'nalishni rejalashtiradi va tezkor harakatni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda jamoat xavfsizligini mustahkamlash borasida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Milliy gvardiya, Ichki ishlar



va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalar faoliyatida jamoat xavfsizligini jangavor taminlash tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan navigatsiya vositalaridan keng foydalanish joriy etilmoqda.

Navigatsiya vositalari (GLONASS, sun'iy yo'ldosh kuzatuv tizimlari) jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimida muhim o'rin egallaydi. Ushbu texnologiyalar yordamida:

- xodimlarning joylashuvini real vaqt rejimida aniqlash;
- transport vositalarining harakatini nazorat qilish;
- favqulodda holatlar joyiga tez yetib borish;
- jamoat tartibini buzish xavfi mavjud joylarni aniqlash;
- axborotni tezkor almashish imkoniyati yaratiladi.

Ayniqsa, ommaviy sport musobaqalari, konsertlar, bayram tadbirlari kabi ko'plab fuqarolar ishtirok etadigan joylarda jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimida navigatsiya tizimlaridan foydalanish xavfsizlikni yuqori darajada ta'minlashga yordam beradi. Masalan, patrul xizmati mashinalarini markazdan boshqariladi va har bir hodimning joylashuvi kuzatib boriladi.

Jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimida navigatsiya vositalaridan foydalanishni takomillashtirish yo'nalishlari.

Navigatsiya vositalaridan foydalanib jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimini samaradorligini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

- Zamonaviy navigatsiya dasturlarini huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatiga integratsiya qilish.
- Navigatsiya ma'lumotlarini sun'iy intellekt tizimlari bilan uyg'unlashtirib, xavf tahlilini avtomatlashtirish.
- Xodimlarni navigatsion texnologiyalardan foydalanishga o'rgatuvchi maxsus o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish.



- Favqulodda holatlarda aloqa uzilganda ham ishlaydigan mahalliy navigatsiya tizimlarini yaratish.

Tan olib aytish kerakki bugungi kunda jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimida navigatsiya vosiyalaridan foydalanishda bir qancha muammolar mavjud. Misol uchun: navigatsiya signalining ayrim joylarda uzilishi, mahalliy navigatsiya tizimlari yetishmasligi, xodimlarning texnik tayyorgarligi yetarli emasligi, axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari kabilardir.

Ushbu maummolarni hal qilish uchun o'zimni taklif va mulohazalarimni berib ketmoqchiman. Milliy sun'iy yo'ldosh navigatsiya tizimini yaratish, xodimlarni doimiy ravishda o'qitish, navigatsiya tizimlarini boshqa boshqaruv tizimlari bilan integratsiya qilish, signalarl uzilmaydigan qo'shimcha tarmoqlarni (radio, dron, Wi-Fi mesh) joriy etish orqali jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimida navigatsiya vosiyalaridan foydalanishni yanada takomillashtirish imkoniga ega bo'lamiz.

Zamonaviy jamiyatda xavfsizlik masalasi eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini sezilarli darajada samarali qiladi. Bugungi kunda videokuzatuv kameralar tarmog'i, sun'iy intellekt asosidagi yuzni aniqlash dasturlari, elektron ma'lumotlar bazalari va onlayn monitoring platformalari jamoat xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Bu texnologiyalar orqali tezkor axborot almashinuvi, xavfli holatlarni erta aniqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishda aniq chora ko'rish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, zamonaviy axborot tizimlari fuqarolarga ogohlantirish xabarlarini yuborish, favqulodda vaziyatlarda tezkor yordam ko'rsatish va muvofiqlashtirilgan boshqaruvni ta'minlaydi.



Umuman olganda, zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimining samaradorligini oshirib, davlat xavfsizligi tizimini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jamoat xavfsizligini jangovor ta'minlash tizimida navigatsiya vositalaridan foydalanish – bu nafaqat xavfsizlikni oshirish, balki boshqaruvni optimallashtirish, resurslarni tejash va tezkorlikni ta'minlashning samarali vositasidir. Ushbu sohani yanada takomillashtirish mamlakatimizda osoyishtalik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari jamoat xavfsizligini jangovor taminlash tizimida axborot kommunikatsiya texnologiyalarning joriy etila boshlangani fuqarolarning ma'muriy va ommaviy huquqbuzarliklar masalalari bo'yicha ortiqcha say harakatlarini oldini olish, soha xodimlarining vaqtini tejash, o'z vaqtida, voqea joyida va tezkorlik bilan jazo muqarrarligini ta'minlash, kuch va vositalarni tezkor boshqarish hamda fuqarolarning murojaatlariga tezda munosabat bildirish imkonini bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепсиясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.12.2021 й., 06/21/27/1116-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 июнидаги “Тошкент шаҳрида жамоат тартибини таъминлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш самарадорлигини ошириш боъйича қўшимча чора-тадбирлар тоъғрисида”ги ПҚ-3786-сон қарори <https://lex.uz/docs/3786903>;



3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 2 февридаги Тошкент шаҳар жамоат транспорти тизимини янада ривожлантиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-111-сон қарори <https://lex.uz/docs/5847479>

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелидаги “Ички ишлар органларининг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасидаги фаолиятини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5050-сон қарори <https://lex.uz/ru/docs/5353841>

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6196-сон фармони <https://lex.uz/docs/5344118>

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 29 ноябридаги “Ўзбекистон Республикаси жамоат хавфсизлиги концепсиясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-27-сон Фармони <https://lex.uz/uz/docs/5749291>